

**QORA ITUZUM (SOLANUM NIGRUM L.) O'SIMLIGINING KIMYOVIY
TARKIBI VA XALQ TABOBATIDAGI AXAMIYATI****ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И ЗНАЧЕНИЕ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ
ПАСЛЁН ЧЁРНЫЙ (SOLANUM NIGRUM L.)****CHEMICAL COMPOSITION AND SIGNIFICANCE IN FOLK MEDICINE
OF BLACK NIGHTSHADE (SOLANUM NIGRUM L.)****Do'saliyeva Safura Shavkatjon qizi***Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrası o'qituvchisi,***Sultonova Muhayyoxon Asadillo qizi****Rahmatova Munavvarxon Abdurahim qizi***Farg'ona davlat universiteti talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ituzumdoshlar (*Solanaceae*) oilasiga mansub o'simliklarning tarqalishi, biologik tasnifi hamda Qora ituzum (*Solanum nigrum* L.) dorivor o'simligining xaxiralari va xalq tabobatida, xususan nafas yo'li kasalliklari, tomoq og'riqlari va yallig'lanish jarayonlariga qarshi qo'llanilishi kabi xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'simlik, ituzum, barg, mevasi, dorivor.

Аннотация: В статье рассматриваются распространение и биологическая классификация растений семейства *Solanaceae*, а также запасы и характеристики лекарственного растения – паслёна черного (*Solanum nigrum* L.) и его применение в народной медицине, в частности при заболеваниях дыхательных путей, боли в горле и воспалениях.

Ключевые слова: растение, паслён чёрный, листья, плоды, лекарственное.

Abstract: This article describes the distribution and biological classification of plants belonging to the *Solanaceae* family, as well as the stocks and characteristics of black nightshade (*Solanum nigrum* L.), a medicinal plant, and its use in folk medicine, particularly for respiratory diseases, sore throat, and inflammation.

Keywords: plant, black nightshade, leaves, fruits, medicinal.

Ituzumdoshlar (*Solanaceae*) o'simliklar oilasi yer sharining tropik, subtropik va mo'tadil mintaqalarida keng tarqalgan bo'lib, taxminan 90 turkum va 2900 ga yaqin turni o'z ichiga oladi [1]. Ushbu oilaning vakillari o'tlar, butalar, chala butalar va kam hollarda kichik daraxtlar shaklida uchraydi. Barglari ketma-ket joylashgan, yonbargchasiz, gullari ikki jinsli, kosachasi va gultoji 5 bo'lakli,

changchisi 5 ta. Mevasi rezavor yoki ko'sakcha shaklida bo'ladi. Ituzumdoshlar asosan Janubiy va Markaziy Amerika hududlarida keng tarqalgan. Oilaning iqtisodiy va dorivor ahamiyatga ega vakillariga kartoshka, pomidor, qalampir, baqlajon, tamaki hamda ituzum kiradi. Ko'plab turlari alkaloidlarga boy bo'lib, xalq tabobati va farmatsiyada qo'llaniladi.

Qora ituzum (*Solanum nigrum* L.) ituzumdoshlar (Solanaceae) oilasiga mansub bir yillik o'tsimon dorivor o'simlik bo'lib, dunyoning ko'plab mintaqalarida, jumladan O'rta Osiyoda keng tarqalgan. O'zbekistonda asosan begona o't sifatida dalalar, bog'lar va yo'l yoqalarida uchraydi. Poyasi tik o'suvchi, sershox, balandligi 30–90 sm gacha yetadi. Barglari tuxumsimon yoki cho'zinchoq, chetlari biroz o'yilgan. Gullari mayda, oq rangli, iyun-iyul oylarida gullaydi. Mevasi dumaloq, pishganda qora rangli rezavor bo'lib, iyul-oktabr oylarida mevalanadi. Bir o'simlik 40 mingtagacha urug' hosil qilishi mumkin, urug'lari tuproqda uzoq vaqt unuvchanligini saqlaydi.

Qora ituzum o'simligining kimyoviy tarkibida glikoalkaloidlar (solanin, solamargin, solasonin), flavonoidlar, saponinlar, organik kislotalar, karotin, C vitamini, shuningdek, mikro va makroelementlar mavjudligi aniqlangan [2,3]. Ushbu biologik faol moddalar o'simlikning shifobaxsh xususiyatlarini belgilaydi.

Xalq tabobatida qora ituzum mevasi va barglari nafas yo'llari kasalliklari, tomoq og'riqlari, yallig'lanish jarayonlari hamda isitmani tushirishda qo'llaniladi. Ayrim hollarda tashqi surtmalar sifatida teri kasalliklarida foydalaniladi. Biroq tarkibida zaharli alkaloidlar mavjudligi sababli ituzumdan ehtiyotkorlik bilan foydalanish tavsiya etiladi [4].

Shu sababli bilan ushbu tadqiqot ishining maqsadi qora ituzum (*Solanum nigrum* L.) o'simligining kimyoviy tarkibini o'rganish va xalq tabobatidagi ahamiyatini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqotlar davomida o'simlikning bargi, poyasi va mevasi tarkibidagi biologik faol moddalarga xos sifat reaksiyalarini o'tkazish, shuningdek, vitaminlar, mineral moddalar va alkaloidlar miqdorini aniqlash rejalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Armando T. Hunziker: The Genera of Solanaceae (o'zbek tilida: Ituzumdoshlarning Turkumi). A.R.G. Gantner Verlag K.G., Ruggell, Liechtenstein 2001. ISBN 3-904144-77-4.
3. "Genus: *Lycium* L." Germplasm Resources Information Network. United States Department of Agriculture. 2009-09-01. Retrieved 2010-12-13.
4. BSBI List 2007 (xls). Botanical Society of Britain and Ireland. Archived from the original (xls) on 2015-06-26. Retrieved 2014-10-17.